

**“TASDIQLAYMAN”  
“TOSHKENT SHAHAR SUV  
TA’MINOTI” MCHJ**

**Direktori**

**M.N.Abbasxanov.**

**2022 yil**



---

***“Toshkent shahar suv ta’minoti” MCHJning ichimlik suv tarmoqlari  
uchun zamonaviy xar xil diametrdagi cho’yan zulfinlarni xarid qilish.***

(ob’ekt, ish, xizmat nomi)

---

**TANLOV XUJJATI**

**TOSHKENT  
2022 y**

**BARCH TASHKILOTLAR DIQQATIGA !!!**

**TOSHKENT SHAHAR SUV TA'MINOTI" MCHJ**

*(Buyurtmachi nomi)*

***Ichimlik suv tarmoqlari uchun zamonaviy xar xil diametrdagi cho'yan zulfinlarni xarid qilish bo'yicha***

**TANLOV E'LON QILADI**

Ob'ekt nomi ***"Toshkent shahar suv ta'minoti" MCHJning ichimlik suv tarmoqlari uchun zamonaviy xar xil diametrdagi cho'yan zulfinlarni xarid qilish.***

*448 480 000 so'm (QOS bilan)- zamonaviy xar xil diametrdagi cho'yan zulfinlar  
Etkazib berish muddati – 2 kun ichida.*


**Buyurtmachi TOSHKENT SHAHAR SUV TA'MINOTI" MCHJ**

**Moliyalashtirish manbasi: "TOSHKENT SHAHAR SUV TA'MINOTI" MCHJ**

- ◆ Tanlov ishtirokchilari quyidagi talablarga loyiq bo'lishlari lozim: ish (xizmat) larni bajarish uchun zarur bo'lgan o'zining omboriga ega bo'liwi, doim omborida maxsulotlar bo'liwi, moliyaviy imkoniyatlarga, shartnoma tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala layoqati vakolatlariga ega va tajribali bo'lishlari shart.
- ◆ Takliflarni baholashda ishtirokchilarning tanlov takliflari qonun hujjatlariga muvofiq qiluvchilarning xizmat (ish, tovar) lari qo'shilgan qiymat solig'i summasi qo'shimcha ravishda hisobga olinadi.  
Tasdiqlangan tanlov hujjatlari buyurtmachi tomonidan joylashtiriladigan davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalidan yuklab olishlari mumkin.
- ◆ Takliflar tanlov tashkilotchisi tomonidan yuqoridagi manzilda tanlov e'lonida chop etilgan kuni va vaqtiga qadar qabul qilinadi.

*E'lon etender.uzex.uz maxsus axborot portalida berilgan.*

**Buyurtmachi tashkilot rahbari:**



**M.N.Abbasxanov.**



## TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

“TOSHKENT SHAHAR SUV TAMINOTI” MCHJ nomidan tanlovda ishtirok etishga tanlov ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi zamonaviy xar xil diametrdagi cho‘yan zulfinlarni olish bo‘yicha tanlov taklifini taqdim etilishini so‘raymiz.

Ob‘ekt nomi: - **“Toshkent shahar suv ta‘minoti” MCHJning ichimlik suv tarmoqlari uchun zamonaviy xar xil diametrdagi cho‘yan zulfinlarni xarid qilish..**

448 480 000 so‘m-(QQS bilan);

Ishlarni tugallash muddati – 2 kun ichida.

Buyurtmachi: “TOSHKENT SHAHAR SUV TA‘MINOTI” MCHJmanzil:

Toshkent shahar, MirobodtumaniFidokor 2.

Loyihani moliyalashtirish manbasi: Korxonada ichki mablag‘lari.

Taklif etilgan shartlar bo‘yicha tanlovda murojaat bilan mahalliy va xorijiy korxonada va tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganligi (ko‘rsatkich 0,2 koeffitsientdan kam bo‘lmagan);

to‘lovga qodirligi (ko‘rsatkich 1,25 koeffitsientdan kam bo‘lmagan);

tanlov ob‘ektiga o‘xshash ob‘ektlarda ishlaganlik tajribasi mavjudligi;

bajarilgan ishlar, shu jumladan o‘z kuchi bilan oldin bajarilgan ishlar hajmi haqidagi ma‘lumotlarni taqdim etish;

bajarilgan ishlar uchun eng kamida 12 oy kafolat berish.

Agar tanlov predmeti bo‘lgan ish (xizmat) larni bajarish bilan bog‘liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi zarur bo‘lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan tanlov ishtirokchilarga ruxsat etiladi.

Quyidagi tanlov ishtirokchilariga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:


Qayta tashkil etilish (bo‘linish, qo‘shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar;

mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

Tanlov taklifini tayyorlash va taqdim etish uchun kerakli barcha hujjatlar tanlov ishtirokchilari uchun yo‘riqnomada aks ettirilgan.

Takliflarni ochish tanlov e‘lon qilingan sanadan boshlab 10 (o‘n) kundan keyin bo‘lib o‘tadi.

Buyurtmachi tashkilot rahbari:



M.N.Abbasxanov.